TADBIRKORLIK FAOLIYATIDA ORGANIK MAHSULOT ISHLAB CHIQRISHNING BARQAROR RIVOJLANISH OMILI SIFATIDA.....	1141
Mamajonova Gulbaxor Toxirjon qizi	
MAHALLIY BUDJET IJROSINI TA‘MINLASHDA G‘AZNACHILIK TIZIMINING INSTITUTSIONAL ROLI VA SAMARADORLIGI	1145
Tangriyeva Farida Abdulkarimovna	
O‘ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA MEXANIKA MUHANDISLIGI TERMINLARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI	1150
Mansurova Nafisa Qamariddinovna	
BUDJET SIYOSATI VA DAVLAT MOLIYASI BARQARORLIGI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI	1154
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	
RESTORAN XIZMATLARI SOHASIDA REJALASHTIRILGAN ISTE‘MOL XULQ-ATVORI SHAKLLANISHINING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI	1159
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
MASHINASOZLIK KORHONALARIDA RAQAMLI EGIZAKLARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH	1163
Yusupov Azamat Alijonovich	
SUN‘IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRILGAN TIZIMLARNING PERSONALNI BOSHQARISHDAGI O‘RNI VA SAMARADORLIGI	1168
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
MOLIYAVIY HISOBOTDA FIRIBGARLIK VA XATOLARNI ANIQLASH MASALALARI	1173
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR FAOLIYATI MOLIYAVIY NATIJADORLIGINI TA‘MINLASHNING OSIYO MAMLAKATLARI TAJRIBALARI.....	1178
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	



XALQARO TAJRIBA ASOSIDA YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1183
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATI ORQALI KREDIT RISKLARNI BOSHQARISH.....	1187
Anvarov Asliddin Nabijon o'g'li	
DAVLAT BUDJETI MABLAG'LARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIVAVIY NAZORATNING AHAMIYATI	1191
Temirov Muradjon Najmitdinovich	
EGILUVCHI TEMIR-BETON ELEMENTLARNING KUCHLANGANLIK– DEFORMATSIYALANUVCHANLIK HOLATIDA BETON DEFORMATSIYASINI HISOBGA OLISH	1195
Xolmirzaev Sattar Abdujabbarovich	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОЙ ОТЧЕТНОСТИ АО «УЗБЕКНЕФТЕГАЗ» ПО ВНЕДРЕНИЮ МСФО 15 НА КОНТРАКТЫ С ПОКУПАТЕЛЯМИ	1201
Тошпулатова Мунисабону Иброхим кизи	
BUXORO VILOYATI AGROSANOAT SOHASIDA INNOVATSION MARKETINGNING JORIY ETISH HOLATI, HUDUDIY XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	1209
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
TIJORAT BANKLARI KREDITLASH AMALIYOTINI SUG'URTA XIZMATLARI ORQALI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	1216
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
BANK SEKTORI RIVOJLANISHIDA MARKETING INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH.....	1223
Dushamov Maxmudjon Maksudbekovich	
TURIZM BOSHQARUVIDA RAQAMLI TIZIMLARI VA ULARNING AMALIYOTDA TADBIQ ETISHDA XORIJ TAJRIBASI	1228
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MILLIY VALYUTADA JALB QILINGAN DEPOZITLARNING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI.....	1232
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
NAVOIY VILOYATI AGRAR STRUKTURASINING IQTISODIY TAVSIFI	1237
Xamrokulov Sindor Qahramonovich	
FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF YOUTH ENTREPRENEURSHIP IN THE EDUCATION SECTOR.....	1241
Alieva Elnara Ametovna	
FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA O'QITISHNING NAZARIY-MEZONLARI.....	1250
Shoximardanova Niginabonu Shavkatovna	
ГРАФОАНАЛИТИЧЕСКИЙ РАСЧЁТ И ГЕОМЕТРИЧЕСКИЙ СИНТЕЗ СИНХРОНИЗАТОРА В БИЦИКЛОВОМ ПЛАНЕТАРНОМ МЕХАНИЗМЕ С РЕВЕРСИРУЮЩИМИСЯ САТЕЛЛИТАМИ.....	1253
Алимов Бахтияр Милибаевич, Абдукайимов Ботиржон Ниязкулович	
HUDUDLARNING INVESTITSION SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ZARURATI VA USTUVOR YO'NALISHLARI	1258
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI.....	1264
Xujamuratov Abbos Mardonovich	



ISLON BANK MAHSULOTLARINI JORIY ETISH METODOLOGIYASI: XALQARO TAJIRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI	1270
Voxidov Oybek Roziqovich	
SUG'URTA BOZORIDA INVESTITSION FAOLIYATNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	1275
Fayziyev Oybek Raximovich	
DETERMINANTS OF WAGES IN THE MODERN LABOUR MARKET: A LITERATURE REVIEW.....	1279
Zakhidov Azizbek Rustamovich	
ЦИФРОВЫЕ ПРОЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СИСТЕМЫ В ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОЙ ОТРАСЛИ.....	1288
Каракулов Фарход Зайпудинович	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA ISHLAB CHIQARISHNI SIFAT MENEJMENTI TAMOYILLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING METODOLOGIK JIHATLARI	1294
Achilov Ilmurad Nematovich	
OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALARNING AKADEMIK XAVFLARINI BOSHQARISHDA SUG'URTA MEXANIZMLARINI JORIY ETISH.....	1299
G'aniyev G'olibjon Abdiraxmanovich	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA MERCHANDAYZING STANDARTLARINI QO'LLASH MEXANIZMINI ISHLAB CHIQISH MASALALARI.....	1305
Safarov Baxtiyor Djurakulovich	
TO'QIMACHILIK KORXONALARI B2B BOZORIDA MARKETING STRATEGIYALARINING INNOVATSION TAHLILI	1314
Sapayeva Nilufar Kadambayevna	
FRANSUZ TILIDA FONO-GRAFOSTILISTIK VOSITALAR: TIPOLOGIYA VA KLASSIFIKATSIYA	1319
Islomov Dilshod Shomurodovich	
PRACTICAL ASPECTS OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP DEVELOPMENT IN MAHALLAS	1324
Gafurov Ubaydullo Vakhobovich	
GUDVILL VA XARIDDAN KELGAN FOYDANI MHXS ASOSIDA BUXGALTERIYA HISOBIDA AKS ETTIRISHNING ILMIY-AMALIY MASALALARI.....	1329
Abdurasulov Jamshidbek Axmad ug'li	
BANKLARDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISH SAMARADORLIGI	1336
Xabibulloxoji Muhammadsolih Alisher o'g'li	
MARKETING AS A DECISIVE ELEMENT IN THE SUCCESSFUL INTRODUCTION OF INNOVATIVE PRODUCTS TO THE MARKET.....	1343
Davlyatova Gulnara	
KORXONALARDA RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA MARKETING KOMMUNIKATSIYA STRATEGIYALARIDAN FOYDALANISH	1348
Akramov Toxir Abdiraxmanovich	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHDA MARKETING VA LOGISTIKA SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING USLUBIY TAMOIYILLARI	1353
Djurayev Bekzod Bekmatovich	
"O'ZBEKNEFTGAZ" AJNING IQTISODIY BARQARORLIGI VA FAOLIYATINING RIVOJLANISHI	1359
Salomova Sarvinoz Salimovna	



BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA AYLANMA IQTISODIYOT TAMOIYILLARI
VA CHIQINDISIZ ISHLAB CHIQARISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 1364

Kurbanova Dildora Abduraxmanovna

ENERGIYA TEJAMKOR TEXNOLOGIYALAR VA QAYTA TIKLANADIGAN ENERGIYA
MANBALARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY VA EKOLOGIK SAMARADORLIGI 1370

Kurbanova Dildora Abduraxmanovna

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQARUVCHI
KORXONALARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH 1377

Sonaev Sanjar Nurmamatovich



330.564.64

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ELEKTR VA MAISHIY TEXNIKA ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH

Sonaev Sanjar Nurmamatovich

Toshkent davlat texnika universiteti

ORCID: 0009-0002-1873-1007

E-mail: sanjar.sanaev.90@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur maqolada O'zbekistonda elektr va maishiy texnika sanoatida iqtisodiy samaradorlikni oshirish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqotda nazariy yondashuvlar, xalqaro tajriba hamda milliy sharoitlarning kompleks tahlili asosida klasterlashuvni rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, inson kapitalini mustahkamlash va eksportni rag'batlantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: elektr texnikasi, iqtisodiy samaradorlik, klasterlashuv, mahalliyashtirish, eksport, modernizatsiya, inson kapitali, energiya tejamkorlik, texnopark, davlat-xususiy sheriklik.

Abstract. The article analyzes key ways to increase the economic efficiency of enterprises producing electrical and household appliances in the Republic of Uzbekistan. Based on theoretical approaches, international experience, and an assessment of national conditions, practical recommendations have been developed for enhancing clustering processes, modernizing production, strengthening human capital, and promoting export activities.

Keywords: electrical engineering, economic efficiency, clustering, localization, export, modernization, human capital, energy efficiency, techno-park, public-private partnership.

Аннотация. В статье проанализированы основные направления повышения экономической эффективности предприятий по производству электрической и бытовой техники в Республике Узбекистан. На основе теоретических подходов, анализа международного опыта и национальных условий разработаны практические рекомендации по развитию кластеризации, модернизации производства, укреплению человеческого капитала и стимулированию экспортной деятельности.

Ключевые слова: электротехника, экономическая эффективность, кластеризация, локализация, экспорт, модернизация, человеческий капитал, энергоэффективность, технопарк, государственно-частное партнёрство.

KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sanoatni tubdan modernizatsiya qilish, qo'shilgan qiymat zanjirlarini mahalliyashtirish va raqobatbardosh milliy ishlab chiqarishni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda elektr va maishiy texnika sanoati, jumladan, elektr plitalar, muzlatgichlar, kir yuvish mashinalari, konditsionerlar hamda boshqa turdagi maishiy elektr-elektronika uskunalari ishlab chiqarish mamlakat iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

Ushbu soha korxonalarining samarali faoliyat yuritishi nafaqat ichki bozorda import o'rnini bosish imkoniyatlarini kengaytiradi, balki tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar eksportini oshirish orqali umumiy milliy iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi (Porter, 1990).

2024-yil yakuniga ko'ra, O'zbekistonda umumiy sanoat ishlab chiqarish hajmi 885,8 trln so'mni tashkil etib, 2023-yilga nisbatan 6,8 foizga o'sdi (O'zStat, 2025). Bu holat sanoat tarmoqlarida, xususan, elektr-texnika mahsulotlari segmentida o'sish ehtiyojining yanada ortib borayotganidan dalolat beradi. Hukumat tomonidan

qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasida elektr-texnika sohasida ishlab chiqarish hajmini ikki barobarga, eksport hajmini esa uch barobarga oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan (Farmon, 2023).

Shu bilan birga, ichki bozorda raqobat muhitining kuchayishi, import hajmining bosqichma-bosqich qisqarishi, sifat va narx o‘rtasida optimal muvozanatni ta‘minlash, ta‘minot zanjirlarini raqamlashtirish hamda energiya samarador texnologiyalarga o‘tish kabi qator vazifalar kun tartibiga chiqmoqda. Bunday sharoitda elektr va maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalarning iqtisodiy samaradorligini ta‘minlash ularning ichki resurslardan oqilona foydalanishi, strategik boshqaruv qarorlari sifatini oshirishi hamda zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish mexanizmlarini joriy etishi bilan bevosita bog‘liqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Iqtisodiy samaradorlik murakkab iqtisodiy kategoriya bo‘lib, u jahon ilmiy adabiyotlarida iqtisodiy tizimlarning strategik rivojlanishi, resurslardan oqilona foydalanish hamda raqobatbardoshlikni ta‘minlashda hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Ushbu tushuncha faqat hisob-kitoblar va moliyaviy natijalar orqali emas, balki metodologik mezonlar asosida ham tahlil qilinadi.

Avvalo, Rusyn (2024) iqtisodiy samaradorlikni ontologiya va epistemologiya nuqtai nazaridan talqin qilib, uning borliq, mohiyat, vaqt va harakat kabi falsafiy tushunchalar bilan uzviy bog‘liqligini ta‘kidlaydi. Muallif fikriga ko‘ra, samaradorlik bu nafaqat natija, balki qaror qabul qilishdagi metodologik asosdir. Shu nuqtai nazardan, uni tizimli va strategik boshqaruv modellariga integratsiya qilish zarur.

Shodmonovna va boshqalar (2021) iqtisodiy samaradorlikni korxonalar faoliyatidagi asosiy maqsad sifatida belgilaydi. Mualliflar uni resurslar xarajatlari va erishilgan natijalar o‘rtasidagi nisbat orqali baholaydi hamda ijtimoiy va iqtisodiy omillarning o‘zaro ta‘sirini alohida ta‘kidlaydi. Ushbu yondashuv elektr-maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalar misolida samaradorlikni keng qamrovda talqin qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy samaradorlikning mukammalroq tahliliy tasnifi Encyclopedia of Public Administration (2020) tomonidan berilgan bo‘lib, unda ushbu tushuncha texnik, alokatsion va dinamik yo‘nalishlarda yoritib beriladi. Mazkur tasnif elektr va maishiy texnika ishlab chiqarish jarayonidagi turli funksiyalar hamda bosqichlarni tahlil qilishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Famulski (2017) iqtisodiy samaradorlikni huquqiy kategoriya sifatida ko‘rib chiqadi. Uning ta‘kidlashicha, qonunchilikda samaradorlik va adolat o‘rtasidagi muvozanatni saqlash muhim hisoblanadi, chunki har ikkisi ham ijtimoiy qarorlarni baholashda asosiy qadriyatlar sanaladi. Ushbu yondashuv elektr texnika korxonalari faoliyatidagi tartibga soluvchi (regulyativ) mexanizmlarni tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarmoqning o‘ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda, Chetroiu va Călin (2013) iqtisodiy samaradorlikni qishloq xo‘jaligi misolida xarajatlar va mahsulot hajmi o‘rtasidagi nisbat orqali o‘lchaydi. Ushbu modelda resurslardan optimal foydalanish hamda minimal xarajatlar evaziga maksimal natijaga erishish asosiy maqsad sifatida belgilanadi. Mazkur nazariy asos elektr-maishiy texnika sanoatida ham samarali ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda qo‘llanilishi mumkin.

Costea (2012) esa investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligiga alohida e‘tibor qaratadi. Muallif investitsiyalarning texnik-ilmiy taraqqiyotni rag‘batlantirishdagi rolini ta‘kidlab, ularni iqtisodiy o‘shishning muhim harakatlantiruvchi kuchi sifatida baholaydi. Elektr va maishiy texnika ishlab chiqarish sohasida yuqori kapital sig‘imi hamda texnologik yangilanishlar mavjudligini inobatga olgan holda, investitsiyalar samaradorligini baholash ushbu tarmoq uchun alohida dolzarblik kasb etadi.

Nihoyat, Krakhina (2024) iqtisodiy samaradorlikni tizimli yondashuv asosida tahlil qilib, uning miqdoriy va sifat jihatlarini, vaqt omili hamda resurslar cheklanganligini hisobga olish zarurligini qayd etadi. Muallifga ko‘ra, samaradorlikning obyektiv va chuqur bahosi faqat birlamchi ko‘rsatkichlarga emas, balki kompleks tahlil natijalariga asoslanishi lozim.

Yuqoridagi ilmiy yondashuvlarga tayanadigan bo‘lsak, “iqtisodiy samaradorlik” tushunchasi turli jihatlardan talqin qilinadi. Biroq umumiy nuqtai nazar shundan iboratki, u korxona faoliyatining natijadorligi va resurslardan oqilona foydalanish darajasini ifodalaydi. Iqtisodiy samaradorlikni aniq baholashda faqat moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan cheklanib qolmasdan, sifat, vaqt omili va resurslar cheklanganligi kabi jihatlarini ham inobatga olish zarur. Bu esa sohadagi korxonalar faoliyatini tahlil qilishda murakkab, ko‘p yo‘nalishli yondashuvni talab qiladi. Shu sababli, elektr va maishiy texnika ishlab chiqaruvchi korxonalarda iqtisodiy samaradorlikka ta‘sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ularni chuqur tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma‘lumotlar birlamchi va ikkilamchi manbalar asosida olindi. Ikkilamchi ma‘lumotlar O‘zbekiston Respublikasi rasmiy statistika ma‘lumotlari, tarmoq hisobotlari, xalqaro tashkilotlar bazalari hamda ilmiy maqolalar orqali shakllantirildi. Birlamchi ma‘lumotlar esa elektr va maishiy texnika ishlab chiqaruvchi



korxonalar faoliyatiga oid ochiq iqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili asosida yig'ildi. Tadqiqot jarayonida qiyosiy tahlil, dinamik qatorlar tahlili, strukturaviy va funksional tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, ishlab chiqarish hajmi, eksport-import ko'rsatkichlari, mahalliyashtirish darajasi va energiya samaradorligi indikatorlari o'zaro solishtirilib, ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri kompleks baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Olib borilgan nazariy tahlil va xalqaro tajribani o'rganish natijalari shuni tasdiqlaydiki, mazkur sohada yuqori natijalarga erishish bir yo'nalishli islohotlar bilan cheklanmasdan, ko'p omilli va uyg'unlashtirilgan yondashuvni talab etadi. Iqtisodiy samaradorlik bugungi kunda faqat moliyaviy ko'rsatkichlar bilan emas, balki texnologiya darajasi, inson kapitali salohiyati, bozor muhiti va institutsional asoslarning o'zaro integratsiyalashgan ta'siri orqali baholanmoqda. Tahlil jarayonida nazariy yondashuvlar amaliyot bilan solishtirilib, O'zbekiston sharoiti uchun maqsadli xulosalar shakllantirildi.

2024-yil yakuniga kelib, mamlakatda maishiy elektr uskunalari bozori hajmi 1,5 mlrd dollarni tashkil etib, bu 2023-yilga nisbatan 9,4 foiz o'sishni anglatdi. Shu bilan birga, so'nggi to'rt yil davomida sohadagi eksport hajmi 437 mln dollardan 1,5 mlrd dollargacha oshib, 3,5 barobarga ko'paydi. Biroq HS-85 tovar guruhi bo'yicha import hajmi 1,58 mlrd dollarni tashkil etmoqda, bu esa ichki bozor talabining kamida yarmi hali ham xorijiy mahsulotlar hisobidan qoplanayotganini ko'rsatadi. Ichki ishlab chiqarish dinamikasiga ko'ra, 2024-yilda 1,2 mln dona muzlatgich, 0,9 mln dona kir yuvish mashinasi va 0,45 mln dona konditsioner ishlab chiqarilib, 7–11 foiz oraliqida o'sish qayd etildi. Mahalliyashtirish darajasi ham ijobiy o'sishni namoyon etmoqda. Xususan, Artel kompaniyasi misolida muzlatgichlar bo'yicha 55 foizga, kir yuvish mashinalari bo'yicha esa 48 foizga yetdi (IndexBox, 2025).

Shu bilan birga, soha uchun strategik ahamiyatga ega bo'lgan energiya samaradorligi masalasida muayyan muammolar saqlanib qolmoqda. Xalqaro energetika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekiston sanoatida energiya intensivligi 1,11 megajoul/2015-dollar PPP darajasini tashkil etgan¹. Har yili o'rtacha 2 foiz atrofida pasayish kuzatilayotganiga qaramay, ushbu ko'rsatkich rivojlangan davlatlar darajasidan sezilarli darajada pastligicha qolmoqda. Shu bois, import o'rnini bosish, eksport salohiyatini oshirish va barqaror tashqi savdo balansiga erishish maqsadida texnologiyalarni yangilash, mahalliyashtirishni chuqurlashtirish hamda energiya tejankor yechimlardan samarali foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Jahon tajribasi elektr va maishiy texnika sanoatida samarali siyosat olib borish uchun boy amaliy yo'nalishlarni taklif etadi. Rivojlanayotgan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eksportga yo'naltirilgan strategiya, texnologik yangilanish, mahalliyashtirishni rag'batlantirish va kadrlar tayyorlash kabi omillar barqaror va muvaffaqiyatli o'sishning asosiy poydevori bo'lib xizmat qilmoqda.

Janubiy Koreyada 1970-yillarda qabul qilingan eksportbop sanoatni rivojlantirish siyosati doirasida Gumi elektronika klasteri shakllantirildi. Davlat tomonidan taqdim etilgan moliyaviy qo'llab-quvvatlash va xususiy sektorning ilmiy-tadqiqot ishlariga faol jalb etilishi natijasida Samsung va LG kabi kompaniyalar xalqaro bozorda yetakchi o'rinlarni egalladi². Ushbu jarayonda sanoatni raqamlashtirish va "yashil" texnologiyalarga ustuvor e'tibor qaratilishi global raqobatda muhim ustunlikni ta'minladi³.

Turkiya tajribasida esa Organized Industrial Zone (OIZ) modeli asosida infratuzilmani markazlashtirish, energiya va soliq sohasida qulay sharoitlar yaratish hamda klaster effektidan foydalanish orqali maishiy texnika ishlab chiqaruvchi kompaniyalar Yevropa bozorlariga millionlab mahsulot eksport qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Hukumat tomonidan yaqin besh yillikda raqamli sanoatni rivojlantirish uchun salmoqli moliyaviy resurslar ajratilmoqda⁴. Xuddi shuningdek, Vetnamda ham davlat tomonidan soliq imtiyozlari va kadrlar tayyorlash markazlarini tashkil etish orqali transmilliy kompaniyalar investitsiyalarini jalb etishga erishildi. Ta'lim va sanoat o'rtasidagi hamkorlik natijasida malakali mutaxassislar tayyorlash tizimi samarali yo'lga qo'yildi⁵.

Hindistonda "Make in India" va PLI dasturlari mahalliy ishlab chiqarishni rag'batlantirish hamda xalqaro raqobatbardoshlikni oshirishga qaratilgan bo'lib, mahalliyashtirish darajasi sezilarli ravishda oshdi⁶.

Malayziyadagi Penang erkin sanoat hududi innovatsion ishlab chiqarish markaziga aylanishi natijasida ilg'or texnologiyalarga asoslangan klasterlar shakllantirildi. Ushbu hududda universitetlar va ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi hamkorlik mahsulot sifati va raqobatbardoshlikni ta'minlashda muhim o'rin tutadi⁷.

1 <https://www.iea.org/countries/uzbekistan/efficiency-demand?>

2 <https://www.grandviewresearch.com/industry-analysis/south-korea-household-appliances-market-report>

3 <https://www.mckinsey.com/kr/~media/mckinsey/locations/asia/korea/our%20insights/koreas%20next%20s%20curve%20a%20new%20economic%20growth%20model%20for%202040/koreas-next-s-curve-a-new-economic-growth-model-for-2040.pdf>

4 [https://tacirler.com.tr/upload/files/arastirma/sirket-raporlari/arcik/arcelik_tacirler-investment_company-report_november_2024.pdf?](https://tacirler.com.tr/upload/files/arastirma/sirket-raporlari/arcik/arcelik_tacirler-investment_company-report_november_2024.pdf?chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.sbb.gov.tr/wp-content/uploads/2025/03/Twelfth-Development-Plan_2024-2028.pdf)

5 [chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.sbb.gov.tr/wp-content/uploads/2025/03/Twelfth-Development-Plan_2024-2028.pdf](https://www.sbb.gov.tr/wp-content/uploads/2025/03/Twelfth-Development-Plan_2024-2028.pdf)

6 <https://timesofindia.indiatimes.com/business/india-business/govt-disburses-21k-crore-under-pli-scheme/articleshow/122078487.cms?>

7 Farlina Said. Malaysia's semiconductor ecosystem amid geopolitical flux. 20 June 2024. <https://www.isis.org.my/2024/06/20/malaysias-semiconductor-ecosystem-amid-geopolitical-flux/>

Ushbu misollar umumlashtirilganda, iqtisodiy samaradorlikni ta'minlashda eksportga yo'naltirilgan siyosat, texnologik modernizatsiya, mahalliy kadrlar salohiyatini rivojlantirish va institutsional qo'llab-quvvatlash o'rtasidagi uyg'unlik hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

O'zbekiston uchun eng dolzarb vazifalardan biri sifatida OIZ (Organized Industrial Zone – uyushgan sanoat zonasi) modeli asosida texnoparklarni shakllantirish zarurati yuzaga chiqmoqda. Bunday sanoat hududlari doirasida innovatsion markazlar, ya'ni ilmiy-tadqiqot muassasalari, startaplar va kichik texnologik kompaniyalar joylashgan maxsus maydonlar tashkil etilishi klaster samaradorligini oshiradi. Shuningdek, eksportni qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy instrumentlar (eksport kreditlari va subsidiyalari), mahalliy ta'minotchilarni xalqaro sertifikatlash, dual ta'lim va STEM dasturlari orqali kadrlar tayyorlash, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi. Aynan ushbu kompleks yondashuv orqali mamlakat uzoq muddatli va barqaror iqtisodiy samaradorlikka erishishi mumkin.

Aniqroq qilib aytganda, OIZ sanoatni rivojlantirish maqsadida maxsus tashkil etilgan, infratuzilmasi tayyor va muayyan imtiyozlarga ega hudud hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi ishlab chiqaruvchi korxonalarni bir joyga jamlash, ular o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish va klaster effektini yaratish hamda biznes yuritishni soddalashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishdan iborat.

Shu o'rinda, bunday sanoat zonalar O'zbekistonda ham mavjud emasmi, degan savol tug'iladi. Jumladan, erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) yoki kichik sanoat zonalar (KSZ) ushbu funksiyalarni bajaradimi, degan masala yuzaga chiqadi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan EIZ va KSZlar ma'lum darajada o'xshash funksiyalarga ega bo'lsa-da, OIZ modeli to'liq shakllanmagan. Haqiqatan ham, respublikada mavjud EIZ va KSZlarning asosiy maqsadi investitsiyalarni jalb qilish, ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksportbop mahsulotlar ulushini ko'paytirishdan iborat. Bu jihatdan ular Turkiyadagi Organized Industrial Zones (OIZ) modeli bilan umumiy yo'nalishga ega. Biroq Turkiya OIZ modeli bilan O'zbekistondagi EIZ va KSZlar o'rtasida qator muhim farqlar mavjud bo'lib, ular 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval. O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va Turkiyadagi Organized Industrial Zones (OIZ)ning taqqoslama tahlili⁸

Yo'nalish	OIZ (Turkiya)	EIZ (O'zbekiston)
Ma'lum bir maqsad		
Asosiy maqsad	Sanoatni klaster asosida rivojlantirish, eksportbop ishlab chiqarish	Xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb qilish, eksportni rag'batlantirish
Tartibga solish	Tizimli, markazlashgan boshqaruv (mamlakat bo'ylab 300-dan ortiq OIZ)	Turli formatdagi zonalar: EIZ, kichik sanoat zonalar, firma klasterlari
Infratuzilma va tayyorlik darajasi		
Infratuzilma	Dastlabdan to'liq ta'minlangan: elektr, suv, kanalizatsiya, logistika	Ko'p hollarda infratuzilma to'liq emas yoki kech ta'minlanadi
Texnopark va ta'lim	STEM markazlari, universitetlar bilan integratsiya	Ayrim zonalarda mavjud, biroq tizimli emas
Soliq va boshqa imtiyozlar		
Imtiyozlar	Soliq imtiyozlari, energiya narxlar bo'yicha yengilliklar, eksport subsidiyalari	Soliq va bojxona imtiyozlari mavjud, ammo doimiylik va prognozlash muammoli
Energiya va xomashyo	Davlat narxlar asosida kafolatlangan ta'minot	Ko'p hollarda xomashyo va energiya ta'minotida uzilishlar kuzatiladi
Klasterlashuv va hamkorlik		
Klaster modeli	Bir xil tarmoqdagi korxonalar joylashadi (masalan, elektronika)	Ko'plab zonalarda tarmoqlararo aralashuv mavjud, klaster modeli sust
Hamkorlik	Ilmiy tadqiqot, ta'lim, logistika va eksport faoliyati uyg'un olib boriladi	Har bir korxona alohida faoliyat yuritadi, zona ichidagi hamkorlik zaif
Boshqaruv va monitoring		
Boshqaruv	Mustaqil boshqaruv kengashlari, xususiy sektor faol ishtiroki	Asosan davlat tashkilotlari orqali boshqariladi
Samaradorlik bahosi	OIZlar milliy eksportning katta qismini ta'minlamoqda	Ayrim EIZlar to'liq ishlamayapti, foydalanilmayotgan hududlar mavjud



Yuqoridagi jadval O'zbekistondagi erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) va Turkiyadagi Organized Industrial Zones (OIZ) o'rtasidagi asosiy institutsional hamda amaliy farqlarni tizimlashtirilgan holda aks ettiradi. Mazkur taqqoslama orqali har ikki modelning maqsadlari, boshqaruv tizimi, infratuzilmaviy tayyorgarligi, innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash salohiyati, klasterlashuv darajasi va hamkorlik mexanizmlari yaqqol namoyon bo'ladi.

Xususan, Turkiyadagi OIZlar sanoatni klasterlashuv asosida rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ularning infratuzilmasi, kadrlar tayyorlash tizimi hamda ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan integratsiyasi oldindan rejalashtirilgan. Ushbu zonalar mustaqil boshqaruv organlari tomonidan boshqariladi va davlat-xususiy sheriklik asosidagi ishtirok mexanizmlari samarali yo'lga qo'yilgan. Bu esa nafaqat investitsiyalarni jalb qilish, balki eksportga yo'naltirilgan, yuqori qo'shimcha qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirish imkonini beradi.

Bunga muqobil ravishda, O'zbekistondagi EIZ va KSZlar hozirgi kunda asosan imtiyozlar va yer resurslarini taqdim etish orqali investorlarni jalb etishga yo'naltirilgan bo'lib, klasterlashuv hamda korxonalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik yetarli darajada rivojlanmagan. Infratuzilma ko'p hollarda to'liq shakllanmagan yoki kechiktirilgan holda barpo etiladi, ta'lim muassasalari va texnoparklar bilan uzviy hamkorlik esa ko'proq tashabbus darajasida qolmoqda. Ushbu holat, ayniqsa, innovatsion ishlab chiqarish va eksport salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, OIZ modeliga xos bo'lgan tarkibiy yondashuv, tizimli rejalashtirish va klasterlashuv konsepsiyasi O'zbekistonning sanoat zonalarini siyosati uchun yo'naltiruvchi namuna bo'lib xizmat qilishi mumkin. Buning uchun zonalarda infratuzilmani rejali shakllantirish, korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirish, ta'lim va ilm-fan bilan integratsiyalashgan mexanizmlarni kuchaytirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda elektr va maishiy texnika sanoati milliy iqtisodiyotning ustuvor va istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida barqaror rivojlanib bormoqda. Mazkur maqolada olib borilgan nazariy tahlil va xalqaro tajribani o'rganish natijalari shuni ko'rsatadiki, soha samaradorligini oshirish texnologik yangilanish va moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan bir qatorda, inson kapitalini rivojlantirish, klasterlashuvni chuqurlashtirish, infratuzilmani takomillashtirish hamda institutsional mexanizmlarni uyg'unlashtirish orqali samarali amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda mamlakatda eksport salohiyatini oshirish, mahalliy ishlab chiqarishni kengaytirish va energiya tejamkor yechimlarni joriy etish borasida izchil va samarali choralar ko'rilmogda. Bu jarayonlar tarmoqning raqobatbardoshligini mustahkamlash, ichki bozor ehtiyojlarini qondirish hamda tashqi bozorlarda milliy mahsulotlar ulushini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shu asosda, sohaning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun O'zbekiston sharoitiga mos milliy modelni xalqaro ilg'or tajribalar bilan uyg'unlashtirgan holda takomillashtirish maqsadga muvofiqdir. Xususan, Turkiya tajribasida muvaffaqiyatli qo'llanilayotgan klasterlashuv yondashuvi, texnoparklar bilan integratsiya hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlaridan samarali foydalanish orqali elektr va maishiy texnika sanoatini rivojlanishning yangi, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bosqichiga olib chiqish uchun keng imkoniyatlar mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
2. Chetroui, R., & Călin, I. (2013). The concept of economic efficiency in agriculture, 573–588.
3. Costea, S. (2012). Economic efficiency of investments, 230–233.
4. Economic Efficiency (2020). Encyclopedia of Public Administration and Public Policy, Third Edition. <https://doi.org/10.1081/e-epap3-120010874>.
5. Famulski, T. (2017). Economic efficiency in economic analysis of law, 3, 27–39. <https://doi.org/10.18778/2391-6478.3.15.03>.
6. Said, F. (2024). Malaysia's semiconductor ecosystem amid geopolitical flux. 2024-06-20. <https://www.isis.org.my/2024/06/20/malaysias-semiconductor-ecosystem-amid-geopolitical-flux/>
7. IndexBox (2025). Uzbekistan domestic appliances market: analysis, forecast, size, trends and insights. <https://www.indexbox.io/store/uzbekistan-domestic-appliances-market-analysis-forecast-size-trends-and-insights/>
8. Invexi.org (2024). Results of Uzbekistan's industrial production in 2024: growth, new opportunities and challenges. <https://invexi.org/uz/press/results-of-uzbekistan-s-industrial-production-in-2024-growth-new-opportunities-and-challenges/>
9. Krakhina, V. (2024). Substantiation of theoretical and methodological approaches to the determination of economic efficiency. Proceedings of the Southwest State University. Series: Economics. Sociology. Management. <https://doi.org/10.21869/2223-1552-2024-14-3-266-275>.
10. Porter, M. E. (1990). The Competitive Advantage of Nations. Free Press. ISBN 978-0-684-84146-5.
11. Rusyn, O. (2024). Efficiency and its theoretical content. Development of Management and Entrepreneurship Methods on Transport (ONMU). <https://doi.org/10.31375/2226-1915-2024-3-52-62>.
12. Shodmonovna, F., Djuraevich, K., & Jamolovich, A. (2021). The importance of economic efficiency in the enterprise and its theoretical aspects, 11, 1337–1345. <https://doi.org/10.5958/2249-7137.2021.00794.1>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100